

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
«IJTIMOIY-IQTISODIYOT» FAKULTETI**

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi.

**«Siyosatshunoslik jamiyat qurish
atik maliyoti»**

I.Muxtorov

_2012 yil

wtr-

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**MAVZU: «Jadidchilik xarakatining madaniy taraqqiyotdagi o'rni
(falsafiy tahlil)»**

Bajardi: «Falsafa » yo'nalishi 4-kurs talabasi

Egamberdiyev Madat Aslidinovich

**Ilmiy rahbar: «Siyosatshunoslik. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va
amaliyoti» kafedrasida dots. M.Sharopov**

SAMARQAND -2012

- KIRISH
- O'zbekiston Respublikasining mustaqillik davriga o'tishi ulkan tarixiy voqyea bo'ldi. Asrlar davomida xalqimiz orzu qilib kelgan niyatlar amalga osha boshladi. «Awalgi yakkahokimlik tuzumining illatlari qat'iy tugatilmoqda. Ko'ppartiyaviylik, g'oyalar va fikrlarning xilma-xilligiga toqat qilish real voqyelikka aylanmoqda. Yagona mafkuraning yakkahokimligiga barham berildi. Umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi, chinakam demokratiya, inson erkinliklari va hukuklarining butun dunyo tan olgan marom va qoidalari tobora ko'proq qaror topmoqda)).1
- Ijtimoiy va ma'naviy sohadayangicha dunyoqarash va mustaqillik mafkurasiga asoslanish odat tusiga kirdi. Bunda insonparvarlik Royalariga sodiklik, xalqlarning madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmoq. bir dunyoqarashning yakkahokimligiga chek ko'yish, kishilarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va hokazolar katta ahamiyat kasb eta boshladi.
- Binobarin, xalqimiz ma'naviy mulkini to'g'ri idrok etish va haqqoniy talqin etish ham shu bugungi ijtimoiy-falsafiy va madaniy tafakkur oldiga katta mas'uliyatlar yuklaydi. Zero «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina kudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat kilar ekanmiz, bu xalk xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi».
- Mustaqillik munosabati bilan xalkimiz tarixi va ma'naviy jarayonlar rivojini obyektiv, ilmiy o'rganishga imkoniyat yaratildi.
- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda keng tarqalgan, milliy-ozodlik harakatlari rivojida, milliy va ma'naviy madaniyat taraqqiyotida juda katta rol o'ynagan ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatinng ijtimoiy-falsafiy mazmunini yangidan ko'rib ChIQISH milliy istiqlool mafkurasini uchun xizmat qiluvchi falsafa ilmi oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylandi.

- **1 bob. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va tarqalishi.**
- XX asr madaniyatidagi uzgarishlar va yangilanishlar jarayoni baxs munozara, talashish, tortishishni va tuknashuvlarga tula edi. Yangi madaniyatni konunlashtirish, turmushga kiritish kurashni talab kildi. Yangi kiyim-kechak, poshnali poyafzal, yokali kamzul, palto kiygan, sokol-muylov kirganlar va soch ustirganlar kadimlar tomonidan kofirlikda ayblanar edi. Ma'rifatparvarlar o'z xarakatlariga ziyolilarni, boylarni, ruxoniylarni, Turkiston xayotida yangi paydo bulgan sarmoyadorlarni, kosib-xunarmandlarni va dexkonlarni bir suz bilan aytgada, millatning barcha tabakalarini jalb kildilar va yangi Turkiston uchun kurashishga otlantirdilar. Ularning fikricha iktisodni xam, siyosatni xam, urf-odatlarini, diniy akidalar va marosimlarni xam yangi turmush talablariga mos tarzda islox kilish zarur edi. Shuning uchun ular kup yunalishda ish olib bordilar, chunonchi, daslabki davrlarda yangi maktablariga mos tarzda yozish bilan jiddiy shugullangan jadidlar asta-sekin faoliyat doira larini kengaytira bordilar.

- **1.1. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turkistondagi ijtimoiy-ma'rifiy**
- **hayot.**
- XIX asrning 50-80-yillari davomida Markaziy Osiyo to'laligicha chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi.
- Mavjud Qo'qon xonligi 1875 yildayoq butunlay tugatildi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi mustaqillikdan mahrum etilib, Rossiya vassaliga aylantirildi. 1867 yil 14 iyulda Rossiya podshohi Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligi ta'sis etildi, uning birinchi general-gubernatori etib general fon Kaufman tayinlandi. U cheksiz huquqlarga ega bo'lib, faqat Rossiya podshohigagina bo'ysunar edi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu hukumat harbiy kuchga asoslangan edi, uning hukmdorlari ham harbiy edi, general-gubernatorlik tasarrufidagi oblastlar, uyezdlar, volostlar nachalniklari - hammasi harbiy xizmatchilardan, yuqori unvonli zobitlardan tayinlanardi, general-gubernator albatta general unvoniga ega bo'lar edi. Turkiston o'lkasi katta harbiy kuch bilan zanjiriband etildi. General-gubernatorlik Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiy orti viloyatlarini o'z tarkibiga olib, Toshkent uning poytaxtiga aylantirildi.
- Yerli yuqori tabaqa namoyandalari davlatni boshqarish huquqidan mahrum etildilar, bu ularning nafaqat siyosiy faoliyatlarini, balki iqtisodiy imkoniyatlarini ham cheklab qo'ydi. Ular orasida Vatan, xalq mustaqilligini muqaddas biluvchi, uning ozodligi uchun kurashga tayyor turgan fidoyilar ham ko'p edi. Tarix xujjatlariga e'tibor berib: "Ilgari hukmronlik qilgan nufuzli tabaqalarning oddiy kishilarga aylanish jarayoni juda qiyin va alamli kechmoqda. Shuning uchun tasodifiy hodisalarning bo'lishini nazarda tutgan holda mahalliy aholini qattiq nazorat ostida saqlab turish zarur. Yangi tartib va qonunlar orqasida ularning faqat jamiyatdagi mavqeiga emas, balki vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarining qisqartirilishi natijasida iqtisodiy manfaatlariga ham ziyon yetkazildi".

● **1.2. JADIDCHILIKNING VUJUDGA KELISHI**

- XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan musulmamlarga tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi.
- Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalari xayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.
- Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lkada ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:
 - 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma'rifatchilik;
 - 2) 1915 yildan- 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;
 - 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.
- XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonliklar tilida "jadid", "usuli jadid" degan so'z va ibora aylanishib qoldi. Dastlab ziyolilar orasida qo'llanilib yurilgan bu so'z va ibora borgan sari oddiyroq odamlarning ham tiliga ko'cha boshladi. Keyinroq esa bu xodisa butun jamiyat xayotida o'zgarishlar yasay boshlagach, "Jadid", "usuli jadid", "taraqqiy" kabi so'zlar ommalashib ketdi. Xatto bu so'zni "Kofir" ma'nosiga nisbat berdilar. Ayrim namoyondalarni to'g'ridan-tug'ri "taraqqiy" yo "jadid" deb atay boshladilar.

- **2 BOB. JADIDCHILIKNING MADANIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.**

- Jadid xarakati yuzaga kelganda Turkistonda xayot nixoyatda kiyin va ogir kechar edi. O'lka o'z o'tmishi, tarixi, fan va madaniyatidan bexabar axvolga tushib kolgan edi.
- Jadidlar Turkistonni g'aflat uykusidan uygotishga va olamni kuz ochib kurishga, uzligini tanishga da'vat etdi. Bu savobli ishda jadid adabiyoti, jadid teatri, jadid matbuoti, azaliy va adabiy bulgan inson ruxiyatini teran badiiy kayfiyatini yuksakka kutarib yubordi. Ular ovrupacha teatr va adabiyotning yangi-yangi janrlarini Turkiston madaniy va ma'naviy xayotiga joriy etar ekanlar, xalk ogzaki dramasing muayyan shakllaridan baxramand buldilar.
- Jadid ziyolilarining teatrchilik xarakatlari yuzaga kelishda usha zotlarning gayrat va kuyinchaklik bilan yozilib, matbuot saxifalariga kuchgan kuzatishlari, muloxazalari xam ma'lum darajada axamiyat kasb etdi, milliy tafakkurni shunga tayyorladi, yunaltirdi.

- **XULOSA**

- Mazkur risolada XIX asrning boshlarida Turkistonda shakllangan va rivojlangan axloqiy-estetik tafakkur tarakkiyoti mustaqil O'zbekistonning shu bugungi mafkuraviy talab va imkoniyatlari asosida o'rganildi.
- Mustaqillik sharofati bilan tarixga, ma'naviy qadriyatlarga, o'tmish mutafakkir va ijtimoiy-falsafiy, madaniy-axloqiy merosimizga munosabat o'zgardi. Tarix sahifalaridan o'chirib tashlangan qancha-qancha allomalar nomi tiklanmoqda, Sharq falsafasi, so'fizm va naqshbandizmga bo'lgan munosabatlar tubdan o'zgardi.
- Xalq tarixini belgilovchi, millat ma'naviy takomilini ifodalovchi va milliy shakllanish va taraqqiyot yo'llarinn ko'rsatuvchi juda ko'p tarixiy obidalar, hodisalar va shaxslarga yangicha yondashish imkoniyati tug'ildi. Qisqasi, tarixga va tarixiy shaxslarga, ular bilan bog'liq ijtimoiy hodisalarga millin an'analar va umumbashariy qadriyatlar tarzida qarash kuchaydi.
- XIX asrning II yarmida sodir bo'lgan Turkistondagi milliy-ozodlik harakati, garchi aniq reja va maqsadlarni ko'zlamagan bo'lsa-da, tub mohiyat bilan xalq ongini o'stirdi, har bir avlodnish keyingi avlod uchun tashlagan kutlug' qadami -ma'naviy merosn I bo'lib boradi. Chor samoderjaviyesining mustabidlik va kolonial siyosati, o'z navbatida, Turkistonda ijtimoiy-falsafiy va madaniy-axloqiy tafakkur taraqqiyotini tezlashtirdi.
- Ahmad Donish, Furqat, Sattorxon va Muqimiylar nomi bilan bog'liq ma'rifatparvarlik harakati milliy uyg'onishning, ijtimoiy-falsafiy tarakkiyotning ifodasi edi. O'z xalqini ma'rifatli va madaniyatli ko'rishni istagan mutafakkirlar qatoriga yangi tug'ila boshlagan mahalliy burjaziyaning ilg'or va ma'rifatparvar vakillari ham ko'shildi. Bunday ijtimoiy-siyosnn va falsafiy yuksalish ijtimoiy jihatdan ancha ilgarilab ketgan mamlakatlardan o'rganish, ular bilan muloqotda bo'lish va ularnshp ijobiy fazilatlarini mahalliy sharoitga olib kelish tendensiyasi sifatida ko'zga tashlanadi. Shuning uchun Ahmad Donish va Furqatlar rus fani va madaniyatidan bahramand bo'lishga, o'rganishga va so'ngra o'zimizda ham yangi milliy madaniyat namunalarini yuksaltirishga xalqni da'vat etdi.

- **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1. Karimov LA. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.. «O'zbekiston», 1992.
- 2. Karimov LA. Milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1993.
- 3. Karimov LA. Mustaqillik va ma'naviyat. T., «O'zbekiston», 1994.
- 4. Karimov LA. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat», 2008.
- 5. Karimov LA. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
- 6. Karimov LA. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1994.
- 7. Jabborov N. Furqatning xojidagi hayoti va ijodiy merosi manbalari, mantiqiy tadqiqi poetikasi filologiya doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya aftoreferati. T., 2004.
- 8. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matboti tarixiga materiallari, Samarqand, Toshkent, 1927.
- 9. Is'hoqxon Ibrat. Jome'ul-xutut, Namangan, «Matbaai Is'hoqiya», 1912.
- 10. Bartold V.V. Sochineniya v devyati tomax, II torn (chast 2). M., 1963.
- 11. Fitrat A. Hind sayyoxatining qissasi // Sharq yulduzi, 1991.
- 12. Rizobadli T. Idoraga maktublar// «Sadoi Turkiston», 1915.
- 13. Lazizoda L. Behbudiy // «Maorif va o'qituvchi», 1926.
- 14. «Oyna», 1914.
- 15. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq // Tanlangan asarlar. T., 1998.
- 16. Xo'jayev F. Jadidchilik // Ocherki revolyusionnogo dvijeniya v Sredney Azii. M., 1926.
- 17. **HeTOpHa (j)HJK>C04)HH b 6-tom.** T.5. M., 1961.
- 18. **IlpHjryijKHH E.A. 3ana^ h Boctok b (^hjioco^ckhx h TeoperaHeckHX Komjenmiflx A^ca^HAOB // DKaflHAHHJiHK: hcjiox,ot, HHrmiaHHiu, MycTaKHJijiHK Ba TapaKRHeT ynyH Kypain.** T., 1999.
- 19. Rizayev Sh., Jadid dramasi. T., «Sharq», 1997.
- 20. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T., 2001.

● ETIBORINGIZ
UCHUN RAXMAT

